

G’O’ZANI BOSHOQLI BEGONA O’TLARDAN HIMOYA QILISHDA GERBITSITLARNING SAMARADORLIGI

Saidolimova Dilnura Ulug‘bek qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Anotatsiya. G’o’za ekiladigan maydonlarda begona o’tlarning 74 turi, chunonchi ajriq, g’umay, qo‘ypechak, salomalaykum, itqo‘noq, qora kurmak va boshqalarlar ko‘p uchraydi. Begona o’tlarga qarshi mexanik va kimyoviy usullar bilan kurash olib boriladi. Ushbu maqolada g’o’za ekiladigan maydonlarda uchraydigan begona o’tlar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar. G’o’za, begona o’t, qarshi kurash, kimyoviy kurash, Itqo‘noq, salomalaykum, gerbitsid.

Аннотация. Встречается 74 вида сорняков, таких как айрик, гумай, койпекак, саламалайкум, итконок, курмак черный и другие. Борьба с сорняками осуществляется механическими и химическими методами. Эта статья о сорняках, встречающихся на хлопковых полях.

Ключевые слова. Хлопок, сорняки, борьба, химическая борьба, Итконак, саламолайкум, гербицид.

Annotation. There are 74 types of weeds, such as airik, gumai, koypechak, salamalaykum, itkonok, black kurmak and others. Weed control is carried out using mechanical and chemical methods. This article is about weeds found in cotton fields.

Key words. Cotton, weed control, chemical control, Itkonak, salamolaikum, herbicide.

KIRISH. Jahonda g'o'zaning 80 dan ortiq mamlakatda yetishtiriladi. Asosiy paxta yetishtiruvchi mamlakatlar: Xitoy (3,7 mln.ga, 30,6 s/ga, 11,4 mln. t), AQSH (5,4 mln. ga, 17,5 i/g‘a, 9,5 mln.t), Hindiston (9,0 mln.ga, 6,9 s/ga, 6,2 mln.t), Pokiston (2,9 mln.ga, 15,3 s/ga, 4,4 mln.t). Shuningdek,[Braziliya](#),[Turkiya](#),[Misrda](#)ham katta maydonlarni egallaydi. 20-asr oxiriga kelib asosiy paxta yetishtiruvchi mamlakatlardan Xitoya 3,8, AQShda 3,6, Hindistonda 2,0, pokistonda 1,5, Turkiyada 0,8 mln.t; jahon bo‘yicha 18,2 mln. t paxta tolasi yetishtirildi. O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha bugungi kunda dunyoda 6-o‘rinda turadi. Hozirgi kunda respublika bo‘ylab o‘rtacha 1,1-1,2 mln tonna paxta hosili olinadi. Savol tug‘ilishi mumkin: ittifoq davrida 5-6 mln tonna hosil olingan ekan, o‘scha paytlar O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha yetakchi bo‘lganmi? Avvalo u paytlarda 5-6 mln tonnalik xirmon bilan maqtanilgan bo‘lsa-da, aslida buncha paxta yetishtirilgani katta shubha ostida bo‘lgan. Qolaversa, AQSh, Hindiston kabi davlatlar hosildorligi hozirgidan ham yuqori edi. Shuningdek, mahalliy qayta ishlash deyarli bo‘lmagan, paxta asosan xomashyo shaklida sotilgan.

Itqo'noq – *Setaria glauca* L., boshoqdoshlar (Gramineae) oиласига киради. Itqo'noq г'o'за ва беда екинларини, шунингдек, буг'doy ва тариқни жуда ифлослантиради. У yer tanlamaydi, shuning uchun kuchsiz va zichlangan tuproqli maydonlarda uchraydi. Bu xususiyati ekin dalalarida uning boshqa begona o'tlar bilan raqobatlashishini osonlashtiradi. Yaxshi parvarish qilinmagan va o'g'itlanmagan bedazorlarda itqo'noq nihoyatda ko'payib ketadi. U ko'kimir rangi bilan ajralib turadi. Poyasi to'g'ri va ingichka, yuqorisi g'adir-budur, bo'yi 50 sm gacha yetadi. Barglari ingichka, uzun, dag'al, siyrak tukli bo'ladi. Poyasining ustida ingichka va tig'iz ro'vagi bor. Boshog'inining qiltig'i sariq yoki qizil bo'lishi bilan ajralib turadi. Urug'i mayda, to'q kul rangda. Itqo'noq maydan iyulgacha gullaydi, iyundan sentyabrgacha hosil tugadi. Paxta dalalarida, bedapoyalarda va boshqa ekinlar orasida ko'k itqo'noq ham uchraydi. Bu itqo'noq yashil rangda bo'lishi ro'vaginiн yirikligi, qiltig'i yashil va urug'i oq rangda bo'lishi bilan oq itqo'noqdan farq qiladi.



1-rasm. Itqo'noq – *Setaria glauca* L.,

Salomalaykum – *Cyperus rotundus* L., qiyoqdoshlar (Cyperaceae) oиласига киради. Uning 400 ga yaqin turi bor. Asosan O'rta Osiyoda, kamdan-kam Shimoliy Kavkazda uchraydi. Nam yerlarda yaxshi o'sadi. Barcha ekinlar, ayniqsa, sholi va g'o'za rivojlanishining dastlabki davrlarida, sabzavot-poliz va boshqa ekinlarning eng zararli begona o'ti hisoblanadi. Bu begona o'tdan qutilish uchun yerlarni quritish va agrotexnikaviy tadbirlarni amalga oshirish kerak. Poyasi to'g'ri, uch qirrali, ingichka, silliq, bo'yi 15-20 sm. O'zbekiston sharoitida iyun-avgustda gullaydi. Urug'dan qanday ko'paysa, poyasidan ham shunday ko'payadi. Ildizpoyasi yer yuzasiga qancha yaqin joylashsa, bachkilar shuncha ko'p chiqadi. Ko'milish chuqurligiga qarab, bitta tuganak turli sonda: 1-5 sm da 4 ta bachki, 10-15 sm da 2 ta bachki, 20-30 sm da 1 ta bachki hosil qiladi. Solamalaykum urug'i, odatda, bahorda жуда sekin, bir necha yil davomida unib chiqadi.



2-rasm. Salomalaykum – *Cyperus rotundus* L.,

Qamish – *Phragmites communis* Trin., boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. Qamish, botqoq tuproqli va sizot suvlari yuza joylashgan dalalarda keng tarqalgan. Sizot suvlar qancha yuza bo'lsa, qamish shuncha ko'p bo'ladi. Ildizpoyasining tarqalish chuqurligi sizot suvlarning chuqurligiga bog'liq.



3-rasm. Qamish – *Phragmites communis* Trin.,

2.1. Tadqiqot uslublari. Begona o'tlarni hisobga olish usullari.

Dalalardagi yoki ekin maydonlaridagi begona o'tlarga qarshi samarali kurashish uchun avvollo ularni hisobga olish kerak. Chunki, u yoki bu tadbirni qo'llashdan oldin ifloslantiruvchi begona o'tlarning biologik xususiyatlarini bilish zarur. Dala begona o'tlar bilan qay darajada ifloslanganligini bilish va xarita tuzish, ularga qarshi kurash tadbirlarini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. Dalalarning begona o't bosganlik darajasi ikki marta: o'suv davri boshlarida, ya'ni ertagi begona o'tlar bor-yo'qligi aniqlanayotganda va kechki begona o'tlarni aniqlash uchun o'suv davri oxirida hisoblanadi. Ko'p yillik begona o'tlarning urug'i, ildizpoya va ildizlarining soni kuz oxirlarida, qaysiki begona o'tlarning urug'i ko'p to'kilgan va yer osti organlari normal

rivojlangan davrda hisoblanadi. Bunda begona o'tlar ikki xil usulda, y'ani yurib, ko'z bilan chandalab, taxminan va aniq hisobga olinadi.

Bu usul oson va qulay, chunki, bunda dalaning diagonali bo'ylab ma'lum oraliqda yurilib, begona o'tlar taxminan hisobga olinadi va ballga ajratiladi. Ballga ajratishda akademik A.I.Maltsevning quyidagi to'rt balli shkalasidan foydalaniladi.

- 1 ball o'simlik qoplamida 5 % gacha begona o't uchraydi,
- 2 ball o'simlik qoplamida 5-25 % gacha begona o't uchraydi,
- 3 ball o'simlik qoplamida 25-50 % gacha begona o't uchraydi,
- 4 ballda esa begona o'tlar madaniy o'simliklarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari. Tajribalar tasdiqlangan ish dasturiga muvofiq quyidagi sxema bo'yicha o'tkazildi:

1. ENTO-RANE 20% em.k.
2. ERA GOLD v.d.g.
3. SELLEKT ec
4. Nazorat - (preparatsiz)

G'o'za dalalarida boshoqli begona o'tlarga qarshi qo'llanilgan preparatlarning samarsdorligi aniqlash 45 kunlik kuzatuv ishlari olib borildi. 2024 yilda Termiz tumani tumanida o'tkazilgan tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, bunda sinalgan barcha kimyoviy preparatlar boshoqli begona o'tlarga qarshi kurashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

O'tkazilgan tajribalar xulosasiga ko'ra, turli kimyoviy guruxlarga mansub ENTO-RANE 20% em.k., ERA GOLD v.d.g. 0,75 g/ga, SELLEKT ec 1,5 l/ga sarf meyyorlarida boshoqli begona o'tlarga qarshi qo'llash tavsiya etiladi. Boshoqli begona o'tlarga qarshi 2023 - 2024 yillarda Termiz tumani Namuna MFY da o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ENTO-RANE 20% em.k., 0,75 l/ga sarf meyorida qo'llanilganda itqo'noqda 45 kuni 86,4 %, Ko'k itqo'noqda 45 kuni 89,2 %, qamishda 45 kuni 88,4 %, g'umayda 45 kuni 87,7%, bilogik samara dorlikka erishilgan. ERA GOLD v.d.g. 0,75 g/ga sarf meyorida qo'llanilganda itqo'noqda 45 kuni 92,2 %, Ko'k itqo'noqda 45 kuni 90,9 %, qamishda 45 kuni 90,2 %, g'umayda 45 kuni 91,2%, bilogik samara dorlikka erishilgan va SELLEKT ec 1,5 l/ga sarf meyorida sinalgan variantda itqo'noqda 30 kuni 94,25 %, Ko'k itqo'noqda 30 kuni 92,9 %, qamishda 30 kuni 90,2 %, g'umayda 30 kuni 91,2%, bilogik samara dorlikka erishilgan.(1-jadval)

Variantlar		Nazorat (gerbidsitsiz)				Etalon Ento-Rane, 20% em.k. 0,75 l/ga				ERA GOLD v.d.g. 0,75 g/ga				SELLEKT ec 1,5 l/ga			
Begona o't turlari		1- ku n	15- ku n	30- ku n	45- ku n	1- ku n	15- ku n	30- ku n	45- ku n	1- ku n	15- ku n	30- ku n	45- ku n	1- ku n	15- ku n	30- ku n	45- ku n
Itqo'n oq	sht	12, ,6	18, ,3	21, ,9	22, ,8	11, 9	5,3	4,4	3,1	10, ,7	3,9	2,1	1,7	3,8	3, ,5	1,6	1,0
	%						71, 0	79, 9	86, 4		78, 6	90, 4	92, 5		79, ,8	94, 5	95, 6
Ko'k it- qo'noq	sht	7, 3	8, 7	14, ,3	17, ,7	8,1	2,4	2,2	1,9	7, 8	2,1	1,8	1,6	2,0	1, ,5	1,4	2,0
	%						68, 9	84, 6	89, 2		75, 8	87, 4	90, 9		89, ,4	92, 9	76, 8
G'uma y	sht	7, 7	14, ,2	19, ,3	22, ,8	8,1	3,4	3,0	2,8	8, 4	3,1	2,8	2,0	3,1	2, ,8	2,0	3,1
	%						76, 0	84, 4	87, 7		78, 1	85, 4	91, 2		85, ,4	91, 2	78, 1
Qamis h	sht	8, 2	9, 7	12, ,3	16, ,4	7,8	2,8	2,3	1,9	8, 8	2,4	2,0	1,6	2,4	2, ,0	1,6	2,4
	%						71, 1	81, 3	88, 4		75, 2	83, 7	90, 2		83, ,7	90, 2	75, 2

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Абдуллаев А.А. Сорные растения я посевов кукурузы Хорезмской области.
- .Arslonov M.T, Nabiiev M.M., Pratov O'.P. O'zbekiston begona o'simliklarining zamonaviy tizimi va qo'sh (binar)nomlari. "O'z.milliy ensiklopediyasi" T.,2003. 91.b
- .Bir yillik begona o'tlarga qarshi Stomp gerbitsidini qo'llash. Tavsiyanomalar. Toshkent, 2000-2001.
- Жўрақулов А. Учет засоренности сельскохозяйственный культур, составление карт типов засорения полей и меры борьбы с ними в Узбекистане. Ташкент – 1985 . 35 с.
- Жўрақулов А. Интегрированная система борьбы с сорняками в хлопководстве. Изд- во « Мехнат» , Ташкент ., 1987 С. 3-37.
- Зокиров К. З., Жамолхонов Х. А. Ботаникан русча -ўзбекча энциклопедик лугат. «Ўқитувчи» нашриёти, Тошкент ., 1973 200 б.

7. Komilova R. Gerbitsidlar va g‘o‘zaning yangi navlari. «Fan» nashriyoti. Toshkent., 1982 . B. 3 -7.
8. Xasanov T.K. va boşqalap Paxta dalalariда bir йиллик бегона ўтларга қарши Гезагардни қўллаш. Тошкент, дез.докл. 2000
9. Abduraxmonov, S. M., Botirov, S.A.O.G.L., & Xo'Jaxonov, A.N.O.G.L. (2023). INGICHKA TOLALI G 'O 'ZA NAVLARIDA O 'SIMLIKXO 'R QANDALALARING ZARARLILIK DARAJASI. *Sharq uyg'onishi: innovations, ta'lif, tabiiy va ijtimoiy fanlar* , 3 (4-2), 442-445.
10. Xasanov B.O., Xamraev A.Sh., Eshmatov O.T., Alimuxhammedov S.N., Azimov J.A., Ochilov P.O., Rashidov M.I., Gapparov F.A. Fўзани зааркунанда, касалликлар ва бегона ўтлардан ҳимоя қилиш »Университет« Тошкент., 2002. 377. б